

QADIMGI YUNON FALSAFASI

Toshboboyeva Munavvar

E-mail: nurmuhammadnabiyev@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika institut o'qituvchisi

Saytniyozov Adham

E-mail: saytniyozov@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Davronov Umrzoq

E-mail: davronovumrzoq287@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Qadimgi Yunon falsafasi, Qadimgi Yunoniston davrida miloddan avvalgi. U 6—5-asrlarda paydo bo'lgan va turli faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan turli tafakkur tizimlarini nazarda tutadi. Bu davrda Yunonistonda ko'plab muhim faylasuf va mutafakkirlar yetishib chiqdi va falsafiy tafakkurning asoslari yaratildi.

Kalit so'z : Yunoniston, arximed qonuni, oltin asr , pifagorchilar, misrliklar,

Yevropaliklar Uyg'onish davridan boshlab, besh yuz yil mobaynida Qadimgi Yunoniston tarixini «insoniyatning oltin asri», deb atab kelmoqdalar. Chindan ham, antik madaniyatda hozirgi zamon kishilarini ham rom etayotgan ko'plab jozibali jihatlar bor. Bular — jamiyatning oqilona tuzilganligi, inson va tabiat uyg'unligi, kuchli diniy hissiyotdir. Yunonlar g'oyat dindor bo'lishgan. Ularda xudolar ko'psonli bo'lib, bu xudolarga, misrliklardan farqli o'laroq, insoniy xususiyatlar baxsh etilgandi. Bu xudolar mag'rur va hasadgo'y, sadoqatli va do'stparvar bo'lishgan. Bir so'z bilan aytganda, ular o'zlarini o'ylab topgan odamlarga o'xshash bo'lishgan. Yunonlar ilmiy bilimlarni g'oyat qadrlashgan, bu holat hatto ularning avlodlarini ham hayratga solgan. Yunonlar, ayniqsa, astronomiya bilan qattiq qiziqishgan. Eng

mashhur yunon olimlaridan biri Arximed bo'lgan. U jismlarning suzish qonunini kashf etdi va bu qonun keyinchalik uning nomi bilan «Arximed qonuni» deb yuritila boshlagan. Pifagor (sharqda — Fisog'urs) eng yirik matematik, yoki o'sha davr tili bilan aytganda, geometri bo'lgandi. Eramizdan avvalgi butun beshinchi asr davomida yunonlar orasida bilimga chinakam intilish mavjud bo'lgan. Geometriya va perspektiva qonunlaridan ibodatxonalar qurilishida foydalanilgan. Shuning uchun ham keyinchalik yashab o'tgan me'morlar ularning ishlarini klassik, ya'ni namunali ish deb e'tirof etishgan. Qadimgi yozuvchilar — Esxil, Sofokl va Yevripidlarning ham asarlari mashhurdir. Ular o'z pyesalari bilan shuhrat topishgan. Buyuk yunonlar orasida tarixchi Gerodot ham bor edi. Avlodlar unga «tarix fanining otasi» deb nom berishgan. Qadimgi yunon faylasufi Suqrot (Sokrat) insoniyatga o'z-o'zini anglab yetishni tavsiya etgandi. Uning tadqiqotlarini shogirdi Aflotun (Platon) davom ettirgan. Arastu (Aristotel) ham qadimgi davrning Buyuk faylasufi bo'lgan. Qadimgi davr falsafasining yana bir silsilasi Yunonistonga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar – antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Suqrot, Pifagor, Aflotun, Arastu va boshqalarning falsafiy, tabiiy – ilmiy, ijtimoiy – ahloqiy ta'limotlari organiladi. Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar ortasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Milet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, oz davrining yetuk siyosiy arbobi, geografi, faylasufi bolgan. Fales ta'limotiga kora, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bolgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo ozgarishda boladi, Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI ortalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yotib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qoygan bolsa, Anaksimandr dunyo – cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va ovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga otishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotni zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen

(eramizdan avvalgi 588-525 yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuvlashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa otov paydo bo'lgan. Yana bir yunon faylasufi Geraklit (eramizdan avvalgi 520-460 yillar) Kichik Osiyoning Garbiy qirgogidagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. Uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turgunlik yoq. Harakat butun tabiatga, barcha jism va hodisalarga xosdir. Abadiy harakat — abadiy ozgarishdir. Harakat qarama-qarshilik asosida sodir bo'ladi. «Kurash hamma narsaning otasi, hamma narsaning podshosidir», degan ekan Geraklit. Bundan Geraklit kishilar ortasida urushlarni targ'ib qilgan ekan-da, deya xulosa chiqarish notogri. Geraklitning fikricha, doimiy ozgarish, harakat va ozaro qarama-qarshi tomonlarga otish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bogliq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bolsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir kordatgan, Pifagor (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab otgan. U qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor ozinging siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga kochib kelgan, osha yerlarda oz uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga kora, olamning asosida modda bam, tabiat ham emas, balki ideallashtgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi, Pifagor zodagonlar oilasiga mansub bo'lgani bois aristokratiyani himoya qilgan. U «tartib» . togrisidagi ta'limotini yaratib, faqat aristokratlar ornatgan tartib ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi, degan. Uning fikricha, demokratiya bu tartibotning buzilishidir. Suqrot chindan ham donishmand odam ideali hisoblanadi. Lekin Suqrotning o'zi, chinakam donishmandlik o'zining sariqchaqaga arziyasligini anglashdadir, deb uqtirgandi. U

Yunonistonda, Afinada taxminan eramizdan avvalgi 470- yillarda tug'ilgan. Uning bolaligi va ota-onasi to'g'risida ma'lumot juda kam. U o'zidan keyin hech qanday asar qoldirmagan. Biroq uning shogirdi, qadimgi yunon faylasufi Aflotun Suqrot ta'limoti va g'oyalarini ustoz hayotidan olingan lavhalar bilan uyg'unlashtirib, muloqot shaklida bayon qilib bergan. Aflotun ta'kidlashicha, Suqrot butun vaqtini Afina bozorlarida, o'z so'zlarini tinglashga rozi bo'lgan har qanday odam bilan gaplashib o'tkazardi. U, ayniqsa, biron-bir masalada o'zining qat'iy fikriga ega bo'lganlar bilan suhbatlashishni yoqtirardi. Suqrot bunday odamlarga yo'l-yo'lakay savollar berib, ularni gaplashishga majbur qilar, so'ng esa ular bu qadar ishonch bilan fikr yuritayotgan masalada johil ekanliklarini ko'rsatib berardi. Shu bois savollar berish orqali bahs olib borish — uslubi Suqrot uslubi, degan nom oldi. Uning asosiy hayotiy qoidasi «O'z-o'zingni anglab yet» qoidasi bo'lgan. Afinaliklar o'zlaryning olam to'g'risidagi asosiy g'oyalarini Suqrot rad etganligi tufayli uni yoqtirishmasdi. Ular Suqrotga u xudolarga, haqiqatga va adolatga ishonmasligini aytishardi. Eramizdan avvalgi 399- yilda dushmanlar uni Afina yoshlarini buzishda hamda diniy majburiyatlarini mensimaslikda ayblab, sudga chaqiradilar. Bunday ayblovlarga hech kim ishonmasdi. Buni Suqrot ham yaxshi bilardi. Uning sudda o'zini himoya qilib so'zlagan, keyinchalik Aflotun tomonidan yozib olingan nutqi mardona, hazil va istehzoga boy edi. U o'ziga o'lim jazosini tayinlashlarini bilgani holda, o'zini haqiqatni topishga bagishlab, avvalgidek yashayverishi darkorligini bayon etadi. Suqrot o'zining so'nggi kunini ham do'stlari bilan jonning abadiyligi to'g'risidagi masalani muhokama qilgan holda hibsdan o'tkazdi. U o'ziga berilgan, og'u solingan idishni dadil qo'lga olib, aslo ikkilanmay, sipqarib yuboradi. Do'stlari ko'z yosh qilishadi, ammo Suqrot ulardan sukut saqlashni iltimos qiladi hamda mamnun — lablarida tabassum bilan jon taslim qiladi. Arastu (Aristotel) Qadimgi Yunonistonda buyuk kishilardan bo'lgan. U hamma davrlarda yashab o'tgan buyuk faylasuflar sirasiga kiradi. Arastu faylasuf Aflotun huzurida yigirma yilga yaqin ta'lim oladi. Aflotun vafot etgandan so'ng Arastu o'z ta'lim uslubini rivojlantira boshlaydi. U amalda inson duch keladigan barcha muammolar bilan qiziqardi. Aql qay tarzda ishlaydi? Haqiqat qayerda-yu yolg'on qayerdaligini qanday ajratib

olishimiz mumkin? Hokimiyatning qanday shakli afzalroq? Arastu atrof muhitni kuzatgan va dalillar to'plagan holda bu savollarga javob topishga intildi. U har bir hodisa o'zining mantiqiy izohiga ega deb hisoblagan hamda tadqiqotlar va kuzatuvlardan hu\$sm chiqarib, uni ta'riflab bergan ilk olimlar qatorida turadi. Arastu o'z maktabiga asos soladi va unga «Liseum» deb nom beradi. U har bir kishi yaxshi va foydali yashab o'tish imkoniyatini bilish yo'li bilan olamda o'z o'rnini egallashi mumkinligiga ishonirishga harakat qiladi. U yoshlik va qarilik oralig'idagi umrga — «oltin o'rtalik»ka ishonardi. Guvohlik berishlaricha, Arastu astronomiya, fizika, poeziya, zoologiya, notiqlik san'ati, biologiya, mantiq, siyosat, boshqaruv, axloq ilmi bo'yicha to'rt yuzga yaqin asar yozgan. Arastu asarlarini butun jahonda odamlar yuzlab yillar davomida o'qib-o'rganishmoqda. Hyech bir olim shuncha uzoq davr mobaynida odamlar tafakkuriga bu qadar ta'sir kursatmagandi. Hozirgi olimlar Arastuning ikki ming yildan ziyodroq vaqt ilgari olib borgan kuzatishlari bugungi kun nuqtai nazaridan ham to'g'ri .Ekanligini tasdiqlashmoqda. U har bir fikr isbotlanishi darkorligini hamda bilimlar asosi dalillar ekanligini bizga anglatadi. Qadimgi Yunoniston ko'plab buyuk zotlar vatanidir. Ular orasida eng e'tiborlilaridan biri eramizdan avvalgi VI asrda yashab o'tgan mashhur olim Pifagordir. Pifagor g'oyaviy targ'ibotchi — ya'ni voiz; matematik va faylasuf bo'lgan. O'z g'oyalari va e'tiqodi tufayli u Yunonistonni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. Pifagor ta'limoti nimasi bilan bu qadar g'ayriodatiy bo'lgan? U ruhning o'lmasligi va «ko'chishi»ga ishongan. Boshqacha aytganda, uning fikricha, o'limdan so'ng jannatga kirmagan ruhlar boshqa odamlar va hayvonlar taniga o'tadi. Shu bois u o'z shogirdlariga go'sht yeyish hamda xudolarga jonliq qurbon qilishni taqiqlagan.

Pifagor izdoshlari, pifagorchilar boshqa qat'iy qoidalarga ham rioya qilishgan. Masalan, ular sukut saqlashi va sharob ichmasligi shart edi.

Pifagor g'oyalarining ba'zilari sodda va hatto bema'niga o'xshab ko'rinishi mumkin, albatta. Biroq u fanga katta hissa qo'shganini unutmaslik kerak. U torlar tovushining past-balandligi matematik jihatdan uning uzunligiga bog'liqligini kashf etadi. Shundan kelib chiqib, uyg'unlik nazariyasini rivojlantirdi hamda koinotda

mavjud bo'lgan jamiki narsa-hodisaning asosida sonlar yotadi, degan fikrni ilgari suradi. Pifagorchilar Quyosh sistemasiga oid nazariyani ham yaratishdi. Ularning bu sohadagi g'oyalari haqiqatdan yiroq emasdi. Ular Yer yoritqich atrofida aylanuvchi shardan iborat, deb hisoblashgandi. Albatta, Pifagorning to'g'ri burchakli uchburchak tomonlarining nisbatini belgilovchi mashhur teoremasini hamma biladi. Arximed qadimgi grek olimi, fizik va matematik bolib, fanga katta hissa qoshgan. Arximed taxminan miloddan avvalgi 287 qadimgi yunon mustamlakasi bolgan Sirakuzadagi Sitsiliya orolida tugilgan. U juda mohir matematik bolib, Misrning Aleksandriya shahridagi Muzeume maktabida talim olgan. U kopincha jismlarning suvda suzishi va suyuqliklarni organish bilan shugullanadi. Arximedning ochgan qonunlari uning yanada mashhur bolishiga olib keldi. Kopchilikka malum bolgan Arximed kuchi yoki Arximed qonuni deb nomlangan qonun fizika fanida alohida orin egallaydi. U yana Richag qonunlarini ochgan. Miloddan avvalgi avvalgi 212 yilda Rimliklar Sirakuzani bosib olgandan song Arximed oldirilgan. Arximed, itarib chiquvchi kuch jism hajmi qadarli suyuqlik ogiriligiga teng, degan xulosaga qanday kelgani haqida afsona bor.

U Sirakuza podshosi Gieron (eramizdan 250 yil oldin) tomonidan oziga berilgan masala ustida fikr yuritdi. Gieron podsho oltin toj yasagan ustaning togriligini tekshirishni Arximedga buyurdi. Tojning ogirligi uni yasashga berilgan oltin ogiriligiga teng bolsa ham, podsho tojni oltinda arzon metallar qorishmasidan yasalgan va uni unga berilgan sof oltin ogiriligiga teng bolishi uchun kattaroq qilgan, deb shubhalangan. Arximedga esa tojni sindirmay uning takibida aralashma bor yoki yoqligini aniqlash vazifasi berilgan edi. Arximedga qanday usuldan foydalanish aniq malum emas edi. Dastlab u bir bolak oltinning ogirigidan 19,3 marta ortiqligini aniqladi. Boshqacha aytganda, Oltinning zichligi suv zichligidan 19,3 marta katta. Arximed toj yasalgan modda zichligini topishi kerak edi. Agar bu zichlik suv zichligidan 19,3 marta katta bolsa, u holda toj sof oltindan boladi, aks holda undan katta yoki kichik qiymat chiqsa toj sof oltindan qilinmagan, degan xulosaga keladi. Tojni ogirligini topish oson, ammo uning hajmini qanday topish kerak? Toj shakli juda murakkab bolgani uchun Arximedni shu narsa qiynadi. Bu

masalada Arximed kop kunlar bosh qotirdi. Kunlardan bir kun u hammomda suvga tola vannaga tushganda bir qancha suv vannadan tashqariga tokiladi, birdan masalani yechishga imkon beradigan fikr keladi. Ozining kashfiyotidan shodlangan Arximed: Evrika!!!, Evrika yani Topdim ! Topdim ! deb xitob qiladi. Uning topgan narsasi shundan iborat edi: har qanday jism suvga botirganda ozining hajmiga teng bolgan suvni siqib chiqaradi. Arximed dastlab tojni suvga tola idishga botirib tojning hajmini aniqladi. Tojning ogirligini shu tojning hajmiga teng bolgan suvning ogirligi bilan taqqosladi. Agar toj ogirligi uning hajmiga teng bolgan suv ogirligidan 19,3 marta katta bolsa u sof oltindan bolishi kerak. Boshqacha aytganda, tojning zichligini aniqlab, uni sof oltin zichligi bilan solishtirdi. Natijada podshoning savoliga javob topib, tojning zichligi sof oltin zichligiga teng emasligini aniqlagach. Shu bilan ustaning aldagani fosh etildi, fan esa ajoyib kashfiyot bilan boyidi. Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI — V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayobat qilib, umrining songgi yillarini Faley shahrida otkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqfda» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. U kop xudolikka hamda insonlarga xos sifatlarni hayvonlarga, osimlik dunyosiga daxlgor deb biluvchi ta'limotga qarshi chiqib, mifologiyani rad etishga harakat qilgan, uning falsafiy ta'limotiga kora, tabiat – ozgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa erdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi», Biz hammamiz erdan tugilganmi va erga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bolib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoscologiyasining rivojiga turtki boldi.

Xulosa

Xulosa qilib, Garb manaviy sivilizatsiyasi shaxsning borligiga, uning ozlikni anglash tuygusiga va moddiy dunyodan uzoqlashish orqali ozini ozi kamol toptirishiga murojaat etish ruhi bilan sugorilgan bolib, bu Garb xalqlarining turmush tarzida va madaniy qadriyatlarni ozlashtirish usullarida oz aksini topgan. Garb manaviy sivilizatsiyasi ozgarishlarga, haqiqatning tagiga yetish yolidagi

izlanishlarga ochiq bolgan. Bu izlanishlar turli, shu jumladan ateistik, intellektual va amaliy yonalishlarda kechgan. Bu falsafalarni organishda, Geraklit, Suqrot, Arastu va Pifagor qarashlari alohida muhim orin tutadi.

Umuman olganda qadimgi dunyo falsafasi keyingi davrlardagi falsafiy tafakkur va madaniyatga, kishilik jamiyatining rivojlanishiga ulkan tasir ko`rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch.-T.:Manaviyat,2008.-174 b
- 2.Manaviy yuksalish yo`lida.-T.: Manaviyat, 2008. -140 b.
- 3.Falsafa asoslari. Q .Nazarov tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005
- 4.Falsafa M.Axmedova tahriri ostida. -T.: O`FMJ, 2006.
- 5.Qahharova SH. Falsafaga kirish. -T.: Universitet, 2005.
- 6.Vvedenie v filosofiyu: Uchebnoe posobie dlya vuzov / I.T.Frolov i dr. 3-e izd., pererab. I dop. -M.: 2003.
- 7.Velike filosofskie ucheniya / Red. I per. I.S.Vdovinoy. -M.: AST, 2005.
- 8.Shermuxamedova N.A. Scientizm va antiscientizm// Falsaf va fan metodologiyasi -T.: Axborot texnologiyalari. 2008
- 9.Qambarov A.A. Jamiyatning manaviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarning roli: Falsafa fan. Nomzodi... Avtoref/ A. A. Qambarov; Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy un-ti.-Toshkent, 2006.- 27 b.
- 10.Voronina T.P. Filosofskie probleme obrazovaniya v informatsionnom ob`estve : dissertatsiya ... doktora filosofskix nauk : Moskva, 1995.
- 11.Bresina T.N. Soznanie v mire : Metodolog. Ontolog. Sots.-filos. Aspekte analiza : dissertatsiya ... doktora filosofskix nauk : Moskva, 1996.